

BUYUK XITOIY DEVORINI KIM QURGAN?

Eramizdan avvalgi VI asrdayoq Xitoyda qishloqlar mavjud bo'lib, u yerda dehqonlar cho'chqa, it boqishar, tariq ekishardi. Keyinchalik dukkakli ekinlar, sholi etishtira boshlashdi. Eramizdan avvalgi 2700- yilga kelib xitoylar ipak qurti pillasidan shoyi tayyorlash yo'lini o'rganib olishdi. Eramizdan oldingi 1800 yildan boshlab Xitoyda shaharlar vujudga kelib, hunarmand shaharliklar yuqori sifatli sopol buyumlar va metall asbob-anjomlar ishlab chiqara boshladilar. Eramizdan avvalgi 1500- yildan keyin xitoyliklarda yozuv mavjud edi.

Xitoy shaharlari faqat tashqi dushmanlar bilan emas, balki o'zaro urushlar ham qilardi. Fuqarolar urushi bir necha yuz yillar davom etdi. Bu urushlar tugashi arafasida hokimiyat bir qo'lga — imperator Sin Shixuan-diga o'tdi. Eramizdan avvalgi 221- yilda u ulkan mamlakatni yagona saltanatga birlashtirdi va unga Xitoy deb nom berdi. Uning sulolasi Xitoyda ko'p emas — 11 yil hukmronlik qildi, biroq o'rnatgan boshqaruv tizimi 1912- yilga qadar saqlanib turdi.

Imperator Sin Xitoyning shimoliy chegaralarida Buyuk Xitoy devorini bunyod etganligi tufayli shuhrat topdi. Bu devor toshdan ko'tarilgan ulkan inshoot edi. Shimoldagi ayrim knyazliklar dushmandan himoyalaniish uchun ilgari ham devor barpo qilgandilar. Imperator Sin esa bir qancha devorlarni qo'shib yubordi va shu tariqa umumiy chegarani bunyod etdi.

YAHUDIYLAR O'Z TARIXLARINI QACHONDAN YOZA BOSHLAGANLAR?

Suriya va Falastinda kuchli davlat Hali vujudga kelmagan edi, shu bois Ko'chmanchi guruhlar ularning hududlarida o'troq bo'lib qoldi. Bu ko'chmanchilar orasida yahudiylar ham bo'lib, ular haqida bizgacha eng ko'p ma'lumotlar yetib kelgan.

Yahudiylar o'z xudolari Yaxve boshqa barcha xudolardan qudratliroq, ekanligiga ishonishardi. Ular boshqa xudolarga nafrat bilan qarashar va, hatto, ularning mavjudligiga shubha ham qilishardi. Eramizdan avvalgi VIII asrdan boshlab ular o'z tarixlarini hamda o'z qonunlarini bita boshlaganlar. Ularning kitoblari saqlanib qolgan, ayrimlari nasroniylarning Yangi Ahdiga ham kiritilgan. Monoteizm — yakka xudoga e'tiqod qilishning yuzaga kelishi insoniyat tarixida katta rol o'ynadi — keyinchalik paydo bo'lgan nasroniylik, buddaviylik va islom dini ham yagona Xudoga e'tiqod qilishga asoslangan.

Yahudiylar bu viloyatdagi odamlardan o'z dinlaridan boshqa hech narsa bilan ajralib turishmasdi. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanishar,

qishloqlarda hamda devor bilan o'ralgan shaharlarda istiqomat qilishar, ayni mahalda sabotli jangchilar edilar: Kanonga kelib, falastinlarni hamda kanoniylarni yengganlar.

Yahudiylar tarixida Dovud va Sulaymon hukmronligi davri (eramizdan avvalgi 1000— 926 yillar) eng muhim davr bo'lgan. Bu vaqtda ularning mamlakati poytaxti quddus bo'lgan Yahudo — yagona podsholikka kirardi. Dovud shaharni egallab, istehkomlarni qayta qurdiradi, Sulaymonga esa finikiyalik ustalar g'aroyib ma'bad va saroy qurib berishadi.

926- yilda podsholik Isroil (shimol) va Yahudo (janub) ga ajraladi. Isroil shohi Omri Samariyada o'ziga yangi poytaxt bunyod etadi, u yerga go'zal saroy qurdiradi. Keyinchalik Isroil Asduriyaning chet hududi bo'lib qoladi, eramizdan avvalgi 594 -yilda esa bobilliklar quddus shahrini bosib olishadi hamda podsho va mahalliy ayonlarni asir olib ketishadi.

SKIFLAR KIMLAR?

Skiflar Manchjuriyadan Rossiyaga qadar Osiyo orqali yastanib yotgan dashtu biyobon, bepoyon yaylovlarda yashagan ko'chmanchi odamlar bo'lgan. Cho'l ikkiga ajratib qo'ygan dashtu biyobon shimolda o'rmonlarga, janubda esa qurg'oqchilik hukm surgan mintaqalarga borib taqalardi.

O'troq hayot kechirgan dehqonlar va shahar aholisidan farqli o'laroq, skiflar chorva (qo'y, qoramol, yilqi) urchitib va qisman ovchilik bilan shug'ullanib tirikchilik qilishardi. Ular har yili podani tog' bag'ridagi yozgi yaylovdan qishda pastlikka haydab tushishadi.

Skiflar yuklarini ot qo'shilgan soyabon aravaga yuklab, yilda ikki bor ko'chishardi.

Eramizdan avvalgi VIII asrda skiflar, ehtimol, o'zlaridan kuchliroq qabilalar tazyiqi ostida, g'arbga tomon surilib borishgan. Bepoyon hudud bo'ylab borar ekanlar, ular janubning ravnaq topgan xalqlari bilan aloqada bo'lganlar, ko'pincha esa ular bilan dushmanlik munosabatida ham bo'lganlar.

Ayrim skif qabilalari qora dengizning Shimoliy sohilidagi dashtliklar tomon siljib borganlar. U yerda qora dengiz sohili shaharlaridagi yunonlar bilan uchrashganlar. Yunon tarixchisi Gerodot o'zining «Tarix» kitobida ularni tasvirlagan.

Shimoliy Eronda o'troq bo'lib qolgan skiflar midiyaliklar bilan janglar olib borganlar. Ular Kavkaz ortiga bostirib kirib, Urartu davlatini halokatga uchratganlar. Ko'plari Onado'lida uzoq vaqt o'troq bo'lib qolishgan.

Skiflarning boshqa guruhleri Kaspiy dengizidan sharqroqqa o'rnashib oladilar va forslarga kun bermay qo'yadilar. Ularning urug'idan bo'lgan yana bir

guruh — kimmeriylar Yaqin Sharqni dahshatga tutib turar, urartular, frigiyaliklar, lidiyaliklar bilan janglar olib borardilar.

Xitoylar va yunonlar skiflarni vahshiy jangchilar sifatida tasvirlaganlar. Bu jangchilar o'zlarining pastak yuguruk otlari bilan bir vujud bo'lib ketgandek edi, go'yo. O'qyoy bilan qurollangan skiflar otda turib jang qilganlar. Bir tasvirga ko'ra, ular dushmani xomkalla qilib, ya'ni bosh terisini shilib, bu terini o'lja sifatida saqlab qo'yishar ekan.

BUYUK BOBIL IMPERIYASI QACHON BARPO ETILGAN?

Eramizdan avvalgi 612- yili yangi Bobil hukmdorligining birinchisi — Nabopalasar midiyaliklar yordamida ossuriyaliklar ustidan g'alaba qozonadi. So'ng Nabopalasar va uning o'g'li Navuxodonosor II g'arbda Ossuriya viloyatlarini bosib olishadi. Oz fursat ichida Navuxodonosor buyuk imperiya barpo qiladi, unga Yahudo ham kirar edi. Yahudoni, uning podshosi va Quddus aslzodalarini itoatda saqlash uchun asir olib, Bobilga jo'natishadi.

Viloyatlarda hokimiyat Bobil noiblari qo'lida edi. Biroq ayrim viloyatlar Bobilga sodiq mahalliy hukmdorlar ixtiyorida edi. Ibodatxonalarga (ibodatxonaga qarashli yerlardan olinadigan) daromadning o'ndan bir qismini podsholikka topshirish majburiyati yuklatilgandi.

Kohinlar bu kiritilgan yangi qoidalarga qarshilik ko'rsatishardi. Aftidan, yangi tartibotlardan norozilik ula'rni Fors podshosi Kiryovushni qo'llab-quvvatlashga majbur etadi va u eramizdan avvalgi 539- yili shaharni jangsiz qo'lga kiritadi.

Bobilning halokati to'g'risida Injilda keltirilgan Valtasar bazmi asnosida devorda sirli bitik paydo bo'ladi, uni o'qish uchun Doniyol payg'ambarni chaqiradilar. Bu tarixiy dalil bo'lmay, bir afsona, albatta. Biroq mixxat matnlardan ma'lumki, Valtasar chindan ham taxt vorisi bo'lgan va u forslar bilan jangda halok bo'lgan (lekin Bobilda emas).

BUYUK BOBIL SHAHRI QANDAY BO'LGAN?

Yunon tarixchisi Gerodot qadimda g'oyat mashhur bo'lgan Bobil shahrini batafsil tasvirlab bergan. Ko'pchilik binolar Nabopalasar va uning o'g'li Navuxodonosor tomonidan qurilgan. Ularning davrida Bobil avvalgidanda ulug'vorroq bo'lib qolgan.

Shahar mustahkam devor bilan o'rab olingan bo'ladi. Ichki devor shu qadar enli ediki, uning ustidan to'rt ot qo'shilgan arava bimalol yura olgan ekan. Devorga qo'yilgan har bir darvoza xudolar nomi bilan atalgan. Muhabbat va urush

ma'budasi Ishtar nomi qo'yilgan darvoza orqali ibodatxona va saroylarga olib boruvchi «tantanalar yo'li» o'tgan.

Darvoza ham, muqaddas yo'l ham sherlar, buqalar va ajdarlarning bo'rtma tasvirlari tushirilgan sirli zangori koshinlar bilan bezatilgan. Hayvonlar ma'budlarning: sher — ma'budi Ishtar, buqa — osmon va ob-havo ma'budi Adad, ajdar esa shahar homiysi bo'lmish ma'bud Mardukning ramzi edi.

Bobilda ibodatxonalar va saroylar ko'p. Ma'bud Marduk nomi bilan bog'liq ulkan ibodatxona zikkurat, ya'ni ibodatxona minorasi bilan yonma-yon joylashgandi. Daryoga yaqin qurilgan hamda sirlangan koshin-bilan bezatilgan saroyda qadimgi dunyoning yetti mo'jizasidan biri — mashhur Semiramida osma bog'lari mavjud edi. Bu bog'lar sun'iy supalarda joylashgandi. Bog'ni qachonlardir soya-salqin, dovdaraxtlarga ko'milgan uyini orzu qilib qolishi mumkin bo'lgan midiyalik malika uchun barpo etilgan.

Shahar rivojlanib, daryoning narigi sohiliga qadar yoyiladi. Bugunga kelib bog'dan bor yo'g'i xom qishtdan ko'tarilgan poydevor qolgan. Daryo oqimini o'zgartiradi, odamlar esa Bobilni tark etishdi.